9-son(1214), 2025 yil 26-Noyabr EL SOG`LIGI - YURT BOYLIGI

SHIFOKOR SO`ZI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA



Hurmatli sog'liqni saqlash tizimi xodimlari!

Ushbu qutlug' ayyomda xalq salomatligining posbonlari bo'lgan siz, azizlarni mamlakatimizda keng nishonlanayotgan kasb bayramingiz – Tibbiyot xodimlari kuni bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Hammamizga ayonki, sihat-salomatlik har bir inson, butun jamiyat uchun bebaho boylik, ulug' ne'matdir. Faqat sog'lom inson va sog'lom xalq mislsiz ishlarga qodir ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning "Davron elining jismida ham jon bo'lg'il, Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il", degan hikmatli da'vati aynan sizlar kabi jonkuyar va fidoyi insonlarga bag'ishlangan, desak, adashmagan bo'lamiz.

Biz sizlarning Yangi O'zbekistonda yangi tibbiyot tizimini rivojlantirish yo'lidagi samarali faoliyatingizni yuksak qadrlaymiz hamda sharafli va mas'uliyatli mehnatingiz uchun el-yurtimiz nomidan samimiy tashakkur bildiramiz.

Aziz shifokorlar!

Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlarini amalda ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatida aholi salomatligini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Bu haqda so'z yuritganda, keyingi yillarda davlat budjetidan tibbiyot sohasi uchun yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmi 6 karra oshirilgani, sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyati tubdan yaxshilanganini ta'kidlash lozim. Tibbiy xizmatlar aholiga yanada yaqinlashtirilib, sifatli tibbiy xizmatlar mahallagacha tushirilmoqda. Eng muhimi, bunday o'zgarishlar natijasini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida his etmoqda. Masalan, ilgari faqat poytaxtda ko'rsatilgan 400 dan ziyod yuqori texnologik tibbiy xizmatlar hozirgi vaqtda viloyat va tumanlarning o'zida ham amalga oshirilmoqda.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami bo'yicha xalqaro tajribaga asoslangan yangi model joriy etilmoqda. Qisqa muddatda hududlarimizda 490 ta muassasa qayta tashkil etilib, yuridik maqomga ega bo'lgan 350 ta mustaqil oilaviy poliklinika faoliyati yo'lga qo'yilgani bu boradagi ishlarimizning natijasidir.

Yurtimizda 2017-yildan buyon onalar o'limi ko'rsatkichi 21 promilledan 11 promillega, go'daklar o'limi esa 11,5 promilledan 7,8 promillega kamaygani ham sohada amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samarasidir.

Joriy yil birinchi marta davlat tibbiyot muassasalariga robot texnologiyalari kirib keldi. O'tayotgan yilda tibbiyotni raqamlashtirish ishlari butunlay yangi bosqichga ko'tarildi.

Sohada DMED yagona elektron axborot platformasi ishga tushirilib, unga 36 million nafardan ziyod aholining tibbiy ma'lumotlari kiritildi. Vazirlik tizimida "Raqamli sog'liqni saqlash" markazi ochildi.

Sun'iy intellekt asosida bajarilayotgan tibbiy tekshiruv va muolajaning turlari 43 taga yetdi.

Tez tibbiy yordam xizmatida chaqiriqlarni elektron boshqarish tizimi o'rnatilgani ham muhim yangilik bo'ldi. Davlat tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy etish ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Tibbiyotda xususiy sektor ulushi ortib bormoqda. O'tgan sakkiz yilda yurtimizda xususiy klinikalarning soni 3,5 mingtadan 9 mingtaga, ular tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat turlari esa 50 tadan qariyb 130 taga yetgani buning yaqqol tasdig'idir.

Mamlakatimiz farmatsevtika bozorida milliy mahsulotlarning hajmi ko'payib, 2017-yildan buyon ishlab chiqarish 1,4 trillion so'mdan 6,3 trillion so'mga, eksport miqdori esa 6,3 million dollardan 250 million dollarga o'sdi.

Soha uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida mavjud uchta oliy o'quv yurti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti nufuzli xalqaro "Times Higher Education" (THE) reytingidan joy oldi. Xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining soni 8 tani tashkil etmoqda.

Bu yil 300 nafarga yaqin mutaxassislarimiz o'nlab rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o'z bilim va malakasini oshirib keldi.

Yurtimiz aholisining turmush sharoitlari yaxshilanib, o'rtacha umr ko'rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzayganida siz, o'z kasbi va xizmat vazifasiga sodiq, zahmatkash soha xodimlarining munosib hissangiz bor, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Hurmatli shifokorlar!

Bugungi kunda biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan marralarga erishishda xalqimizning tinchligi va sog'lig'ini asrash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki tinchlik va sog'liqni mustahkamlab, o'z kuch hamda imkoniyatlariga ishonib, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va millat ezgu maqsadlariga albatta erishadi.

Siz, azizlar bundan buyon ham boy bilim va tajribangiz, malaka va mahoratingiz bilan soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish, O'zbekiston tibbiyotining shonli an'analarini izchil davom ettirish, jahon tibbiyotining ilg'or yutuqlarini o'zlashtirish uchun yanada katta kuch-g'ayrat bilan mehnat qilasiz deb ishonaman.

O'z navbatida, soha xodimlarining xizmatlarini munosib qadrlash, ular uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratib berish masalalari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'lib qoladi.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor muborakbod etib, barchangizga sihat-salomatlik, ish faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, qo'lingiz dard ko'rmasin, aziz shifokorlar!

Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SALOMATLIK MARAFONI: NAVBATDAGI MANZIL – SAMARQAND

So‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasini barcha bosqichlarda takomillashtirish, profilaktik tibbiyotni kuchaytirish va aholining tibbiy madaniyatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda tibbiy xizmat sifatini oshirish, yurtdoshlarimizni xususiy va davlat tibbiy muassasalari orqali o‘z vaqtida tekshiruvdan o‘tkazish, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va oldini olish borasida tizimli chora-tadbirlar izchil davom etmoqda. Mana shunday keng qamrovli va uzluksiz sa’y-harakatlarning amaliy ifodasi sifatida yurtimiz bo‘ylab yana bir keng ko‘lamli loyiha – milliy Salomatlik marafoni o‘tkazilayotir.

Nukusda boshlangan ushbu marafonning navbatdagi manzili – qadimiy va navqiron Samarqand shahri. Loyihaning asosiy maqsadi aholini kasalliklar profilaktikasiga, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishga undash, shu orqali sog‘liqni saqlash sohasidagi milliy harakatni yanada kuchaytirishdir.

17-noyabrdan 17-dekabrgacha davom etadigan mazkur jarayonda Samarqand shahri aholisining 150 ming nafari qamrab olinishi rejalashtirilgan. Shu muddat ichida shahardagi 20 ta oilaviy poliklinikada keng ko‘lamli skriningler va profilaktik tekshiruvlar o‘tkaziladi. Bu jarayonda mahalliy shifokor va hamshiralar bilan bir qatorda Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlaridan jalb qilingan 1200 nafar yetakchi mutaxassis, shuningdek, bir guruh xorijlik ekspertlar ham ishtirok etadi.

Tibbiy ko‘riklar zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘un holda tashkil qilinadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, har bir natija DMED yagona elektron axborot tizimiga kiritilib, kelgusida fuqarolar salomatligining doimiy monitoringi yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa profilaktik tibbiyotning sifatini oshirish, xavf omillarini erta aniqlash va uzoq muddatli sog‘lom hayot uchun asos yaratadi.

Shu bilan birga, Samarqanddagi ikkita jamoat joyida maxsus “Salomatlik maydonchalari” tashkil etildi. Bu yerda aholiga sog‘lom turmush tarziga oid amaliy tavsiyalar beriladi, antropometriya, qon bosimi, puls hamda boshqa bir qator ko‘rsatkichlar o‘lchab, tezkor maslahatlar taqdim etiladi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida tashkil qilingan Salomatlik marafonining rasmiy ochilish marosimida jamoatchilik va soha mutasaddi vakillari amalga oshirilayotgan ushbu keng ko‘lamli tadbirlar yurtdoshlarimiz salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va har bir fuqaroda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidladi.

Darhaqiqat, aholi sog‘lig‘i – davlatning eng katta boyligi, yurt taraqqiyotining garovidir. Shu nuqtai nazardan kasalliklarni erta aniqlash esa birlamchi belgilardayoq davo choralarini ko‘rish imkonini beradi. Shuningdek, erta tashxis inson hayotini asrab qolishda eng samarali vosita bo‘lib, sog‘lom kelajakni ta’minlashga xizmat qiladi.

Manba: uza.uz

PREZIDENT QARORI: TIBBIYOT XODIMLARI UCHUN QO‘SHIMCHA USTAMA, MUKOFOT VA IMTIYOZLAR JORIY ETILADI

O‘zbekiston prezidenti “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Hujjatga asosan, 2026-yildan boshlab davlat tibbiyot muassasalari xodimlari har yilgi Tibbiyot xodimlari kuni bayramida mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorida rag‘batlantiriladi.

Bayram munosabati bilan “Eng yaxshi shifokor”, “Eng yaxshi shifoxona” va boshqa nominatsiyalar o‘tkazish yo‘lga qo‘yiladi. G‘oliblariga 30 million so‘mgacha pul mukofotlari beriladi. Eng yaxshi tibbiyot muassasalariga esa 500 million so‘m ajratiladi.

Qarorga muvofiq, 2026-yil 1-apreldan boshlab davlat tibbiyot muassasalarining ish vaqti rejimi besh kunlik ish haftasiga o‘tkaziladi.

Kelasi yil 1-yanvardan davlat tibbiyot muassasalarida tuman (shahar) darajasida yangi davolash usullarini joriy qilgan va uning ijobiy samarasiga erishgan shifokorlarga BHMning 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti beriladi.

Davlat tibbiyot muassasalarida kamida 15 yil ish stajiga ega bo‘lgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining farzandlariga respublika hududidagi oliygohlarda bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha yillik kontrakt summasining 30 foizi (BHMning 15 baravaridan oshmaydigan qismi) qoplab beriladi.

Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining xalqaro ilmiy-texnik jurnallarda maqolalarni chop etish bilan bog‘liq xarajatlari davlat byudjetidan to‘liq qoplanadi.

Har yili 15 yil ish stajiga ega 500 nafar tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga ipoteka krediti asosida sotib olinadigan uy-joyning 25 foiz dastlabki badali to‘lab beriladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab Milliy akkreditatsiyadan o‘tgan xodimlarga lavozim

maoshining 10 foizi miqdorida oylik ustama to‘lanadi.

Kelasi yil boshidan kamida uch yil ish stajiga ega davlat tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga bir yilda bir marta bepul yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Kamida 15 yil ish stajiga ega bo‘lgan tibbiyot xodimlariga bir yilda bir marotaba respublika hududidagi sanatoriylarga bepul yo‘llanma beriladi. Shuningdek, soha xodimlariga barcha turdagi davlat xizmatlari uchun to‘lovlar miqdori ikki barobar kamaytiriladi.

UNIVERSITETIMIZ XODIMLARI YUNESKO BOSH KONFERENSIYASINING 43-SESSIYASI DOIRASIDAGI TADBIRLARDA FAOL ISHTIROK ETDILAR

“Ipak yo‘li” xalqaro turizm markazida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasidagi tadbirlar o’tkazildi. Unda universitetimiz hodimlari ham faol ishtirok etishdi.

Jimladan, turizm markazida “Samarqand: 3000 yillik meros” mavzusidagi xalqaro anjuman bo’lib o’tdi. Anjumanda YUNESKOning Butunjahon merosi markazi direktori Lazare Eloundou Assomo, viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev, O‘zbekiston va xorijiy ilmiy muassasalar shu jamladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti vakillari ham ishtirok etmoqda.

Xalqaro anjumanda Samarqandning uch ming yillik tarixini ilmiy jihatdan baholash va uning insoniyat tamaddunidagi o‘rni, arxeologik qazishmalar natijalari tahlil qilinadi.

2025-yil 6-noyabr kuni Samarqanddagi Silk Road by Samarkand majmuasida UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasidagi rasmiy tadbir — “Amalda axloq: Insoniyat farovonligi yo‘lida ilg‘or texnologiyalardan foydalanish” (“Ethics in Action: Harnessing Frontier Technologies for the Benefit of All”) nomli tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Samarqand davlat tibbiyot universiteti Yoshlar akademiyasi yetakchilari ham ishtirok etdilar. Tadbir davomida UNESCO–O‘zbekiston Beruniy mukofoti topshirish marosimi va xalqaro ekspertlar davra suhbati o‘tkazildi. Mukofot sohiblari xorijiy professorlar hamda universitetimiz yoshlari bilan ilmiy yutuqlar, tadqiqotlar va hamkorlik istiqbollari yuzasidan foydali muloqot olib bordilar.

O’zbekistonda gender tenglik - bugungi hayotimiz me’yori va barqaror kelajak kafolati. Gender tenglik bu - teng huquq, teng imkoniyat va teng kelajak demakdir. Qadim Samarqand mezbonlik qilgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi doirasida “Gender tengligini ko‘p tomonlama hamkorlik orqali rivojlantirish” mavzusida bo’lib o’tgan xalqaro tadbir (side-event) da universitetimiz xotin-qizlari ham faol ishtitok etdilar.

«SHIFOKORLAR KUNI»GA BAG‘ISHLANGAN BAYRAM TADBIRI TASHKIL ETILDI

Shifokorlik, mashaqqatli va sharafli kasbdir. Jamiyat salomatligida shifokorlarimizning o‘rni beqiyos. Shu boisdan ularni qancha e’zozlasak, qancha hurmat ko‘rsatsak ham oz.

Universitetda “Shifokorlar kuni” munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi. Bayramda so‘zga chiqqan universiteti rektori Jasur Rizayev va Samarqand viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Suxrob Zayniyev barcha sharafli kasb egalarini bayram bilan tabriklab, ularga sog‘lik, salomatlik va faoliyat yo‘lida muvaffaqiyatlar tiladi.

Bayram doirasida universitetning bir guruh xodimlar taqdirlanib, ularga “Oliy ta’lim a’lochisi” va “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a’lochisi” ko‘krak nishonlari hamda tashakkurnomalar va esdalik sovg‘alari topshirildi. Shuningdek, universitetda ilmiy va pedagogik faoliyati bilan barchaga namuna bo’lib kelayotgan professor-o’qituvchilar “Yilning eng yaxshi professori”, “Yilning eng yaxshi dotsenti”, “Yilning eng yaxshi ilmiy xodimi”, “Yilning eng yaxshi o‘qituvchisi” nominatsiyalari bo‘yicha taqdirlandilar.

Tadbir bayramona dasturxon atrofida xushovoz xonandalarning chiqishlari va milliy raqslar namoyishi bilan ko‘tarinki kayfiyatda davom etdi.

«TALABALIKKA BAG‘ISHLOV QASAMYODI» TADBIRI TANTANALI TARZDA O‘TKAZILDI

20-noyabr kuni universitetning 1-bosqichiga qabul qilingan talabalari uchun “Talabalikka bag‘ishlov qasamyodi” tadbiri tashkil etildi. Talabalarning tantanali qasamyod marosimida SamDTU rahbariyati, professor-o‘qituvchilar hamda 1-bosqich talabalari ishtirok etdilar.

Tadbirning ochilish qismida so‘zga chiqqan universitet rektori Jasur Rizayev talabalar tomonidan qabul qilinayotgan ayni damdagi qasamyod ramziy tarzda ularning o‘qishda va keyingi shifokorlik faoliyati davomida oq xalatga munosib kadr bo‘lishlariga turtki vazifasini o‘tashini ta’kidlab o‘tdi. Universitet rektori talabalarning keyingi o‘qishiga omad va muvaffaqiyatlar tiladi. Samarqand davlat tibbiyot universitetining 1-bosqichiga qabul qilingan 3500dan ortiq talabalar “Talabalikka bag‘ishlov qasamyodi” ni tantanali ravishda qabul qildilar. Tantanali tadbir talabalar tomonidan tayyorlangan chiqishlar, kuy va qo‘shiqlar bilan davom etdi.

UNIVERSITET REKTORI XORIJLIK TALABALAR BILAN UCHRASHDI

Samarqand davlat tibbiyot universitetida nafaqat Respublikamiz, balki qo‘shni mamlakatlar: Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Bangladesh, Filippin, Indoneziya va boshqa o‘lkalardan ham talabalar tahsil olib kelmoqda.

Xorijlik talabalar uchun tashkil etilgan Xalqaro ta’lim fakultetida tahsil olayotgan talabalarning soni bugungi kunda 4481nafarni tashkil etadi. 19-noyabr kuni universitet rektori Jasur Rizayev hamda Xalqaro ta’lim fakulteti dekani, t.f.d Sobirjon Mamaradjabov ishtirokida fakultetning 1-2-3-bosqich talabalari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv ochiq muloqot tarzida tashkil etilib, talabalarning muammo va takliflari, savollari yuzasidan fikr almashildi. Talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

UNIVERSITET VAKILLARI XI BELARUS STOMATOLOGIK KONGRESSIDA ISHTIROK ETDILAR

2025-yil 29–31-oktyabr kunlari Belarus Respublikasida XI Belarus stomatologik kongressi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu nufuzli xalqaro ilmiy-amaliy tadbirda universitetimiz rektori Jasur Rizayev boshchiligidagi universitet delegatsiyasi ishtirok etdi. Kongress doirasida stomatologiya sohasining dolzarb masalalari, zamonaviy diagnostika va davolash usullari, shuningdek, tibbiy ta’limni modernizatsiya qilish yo‘nalishlari muhokama qilindi.

29-oktyabr kuni MDH davlatlari ijroiya mahkamasida MDH davlatlari stomatologlar assotsiatsiyasining yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda O‘zbekiston delegatsiyasi nomidan Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev qatnashdi. Yig‘ilishda stomatologiya fanini rivojlantirish, stomatologik ta’limni barcha davlatlarda unifikatsiya qilish va ta’lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish masalalari muhokama qilinib, berilgan tavsiyalar ijroga qaratildi.

Mazkur kongress universitet jamoasi uchun stomatologiya yo‘nalishida ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, yangi ilmiy yutuqlar bilan tanishish hamda xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlash uchun muhim maydon bo‘ldi.

OZARBAYJON TIBBIYOT UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK YANGI BOSQICHDA!

3-noyabr kuni universitetga Ozarbayjon tibbiyot universiteti rektori Geray Geraybeyli boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

Mehmonlar universitet hamda unda yaratilgan sharoitlar, ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, SamDTU tarixi muzeyiga ham tashrif amalga oshirilib, qariyb yuz yillik tarixga ega oliygoh haqida qiziqarli va qimmatli ma’lumotlar ulashildi.

Tashrif doirasida universitetimiz rektori Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, o‘zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda ikkala tomon ham hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishga va birgalikdagi loyihalar istiqboliga umid bog‘ladilar.

IORDANIYA TA’LIM VAZIRI SAMDTUGA TASHRIF BUYURDI

1-noyabr kuni universitetga Iordaniya ta’lim vaziri Azmi Mahafzah tashrif buyurdi.

Mehmonlarni universitet rektori Jasur Rizayev kutib oldi. Tashrif doirasida Iordaniya ta’lim va ilmiy tadqiqotlar vaziri universitet va unda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Zamonaviy ta’lim tizimi va metodikalari haqida ma’lumotga ega bo‘ldi. Shuningdek, SamDTU tarixi muzeyiga ham tashrif amalga oshirilib, qariyb yuz yillik tarixga ega oliygoh haqida qiziqarli va qimmatli ma’lumotlar ulashildi.

Iordaniya ta’lim va ilmiy tadqiqotlar vaziri Azmi Mahafzah Samarqand davlat tibbiyot universiteti ta’lim tizimi negizida mamalakatimiz ta’limi va sog‘liqni saqlash sohasi rivojiga katta umid bildirdi.

YAPONIYANING TSUKUBA UNIVERSITETI SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETIGA QIZIQISH BILDIRMOQDA

30-31-oktyabr kunlari universitetda “O‘zbekiston va Yaponiya oliygohlari rektorlarining 5-forumi» bo‘lib o‘tdi.

“Bilim va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik: inson taraqqiyoti va innovatsiyalar yo‘lida fanlararo yondashuvlar” shiori ostida o‘tkazilgan forumda Respublikamiz hamda Yaponiyaning yetakchi oliygohlari rahbarlari ishtirok etdi.

Forum doirasida O‘zbekiston va Yaponiya oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha bir qancha shartnomalar imzolandi. Jumladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev hamda Tsukuba universiteti prezidenti Nagata Kyusoke o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumi imzolandi. Memorandumga ko‘ra kelgusida ikki oliygoh o‘rtasida ilmiy va amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, birgalikda tadqiqot ishlarini amalga oshirish hamda professor-o‘qituvchilar va talabalarning akademik almashinuvini yo‘lga qo‘yishga kelishildi.

Shuningdek, forum doirasida Gifu universitetining Xalqaro aloqalar bo’yicha prorektori Furuta Tomomi bilan ham o’zaro hamkorlik aloqlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan muhokamalar o’tkazildi.

Ma’lumot uchun: Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Yaponiyaning GIFU uniersiteti o‘rtasida yosh olimlarning tajriba almashinuvi, qisqa muddatlarga talaba yoshlarning amaliyot almashinuvi, doktorlik dissertatsiyalari, magistratura yo‘nalishlari bo‘yicha hamkorlik, “Joint degree” loyihasini amalga oshirish bo’yicha hamkorlik memorandumi imzolangan. Tashkil etilgan forum hamda hamkorlik memorandumlari O‘zbekiston va Yaponiya oliygohlari o‘rtasidagi ilmiy va do‘stlik aloqalarining yanada mustahkamlanishi bilan bir qatorda mamlakatimiz ta’lim tizimiga Yaponiya tajribasini joriy yilishda ham muhim rol o‘ynaydi.

“XIRURGIYA VA ONKOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI” NOMLI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN BO‘LIB O‘TDI

Universitetda “Xirurgiya va onkologiyaning dolzarb masalalari” nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Xalqaro anjumanda mamlakatimiz bilan bir qatorda Rossiya, Belorussiya hamda Ozarbayjondan soha mutaxassislari ishtirok etdilar. Anjuman ochilishida so‘zga chiqqan Samarqand viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i Suxrob Zayniyev hamda universitetimiz rektori Jasur Rizayev tashkil etilgan anjumanning xirurgiya va onkologik kasalliklar bilan kurashish sifatini oshirishga sezilarli ilmiy va amaliy hissa qo‘shishini ta’kidlab, anjuman ishiga omad tiladilar.

Yalpi majlisdan so‘ng anjuman o‘z ishini 5 ta sho‘ba bo‘yicha davom ettirib, “Xirurgiya va toraktal onkologiyaga zamonaviy yondashuvlar”, “Zamonaviy onkourologiya”, “Bosh va bo‘yin o‘smalarining dolzarb muammolari”, “Onkomammologiyaga zamonaviy yondashuvlar” kabi bir qator dolzarb masalalar yuzasidan ma’ruzalar qilndi.

Shuningdek, anjuman doirasida “Sigmasimon ichakning laparoskopik rezektsiyasi”, “Oshqozon-ichak o‘smalarini laporoskopik usulda olish”ga qaratilgan bir nechta murakkab, zamonaviy jarrohlik amaliyotlari bajarilishi rejalashtirilgan.

HINDISTONNING “NARAYANA HEALTH” TIBBIYOT MARKAZI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI YO‘LGA QO‘YILDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Urologiya kafedrasi hamda Hindistonning “Narayana Health” tibbiyot markazi o‘rtasida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

Bu munosabat bilan Urologiya kafedrasi mudiri, dotsent D.Abduraxmanov va dotsent R.Gafarovlar hind mutaxassisi Dr.Forqan Babu Shaikh bilan uchrashib, ikki tomonlama ilmiy va amaliyot yo‘nalishlaridagi hamkorlik istiqbollarini muhokama qildilar.

Suhbat davomida tomonlar kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirishga kelishib oldilar:

- umumiy va laparoskopik jarrohlik amaliyotlari,
- urologiya va ginekologiya sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlari,
- buyrak transplantatsiyasi bo‘yicha tajriba almashish,
- professor-o‘qituvchilar va klinik ordinatorlar uchun qo‘shma mahorat darslari va seminarlar tashkil etish.

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI «PSIXOMOTOR REABILITATSIYA MARKAZI»NI OCHADI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti bugungi kunga qadar sog‘liqni saqlash tizimi hamda tibbiy ta’lim sifatini oshirish, sohaga jahon tajribasini joriy qilish maqsadida dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi muassasalar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatib kelmoqda.

Jumladan, 4-noyabr kuni universitetga Fransiyaning Psixomotor reabilitatsiya bo’yicha davolash, diagnostika va ta’lim markazi delegatsiyasi tashrif buyurdi. Tashrif davomida rektor Jasur Rizayev bilan uchrashuv tashkil etilib, o‘zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Shuni ta’kidlash joizki, oxirgi bir yil davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda Fransiyaning Psixomotor reabilitatsiya bo’yicha davolash, diagnostika va ta’lim markazi o’rtasida hamkorlikka qaratilgan muzokaralar olib borilayotgan bo’lib, ushbu hamkorlik Samarqand davlat tibbiyot universiteti tasarrufida reabilitatsiya bo’yicha davolash, diagnostika va ta’lim markazini ochish hamda birgalikda malakali kadrlar tayyorlashni yo’lga qo’yishni nazarda tutadi.

Fransiyaning mazkur markazi bilan Psixomotor reabilitatsiya bo’yicha davolash, diagnostika va ta’lim markazining ochilishi autizm, parkinson, epilepsiya, apraksiya kabi psixomotor kasalliklarning reabilitatsiyasini amalga oshirishda muhim rol o’ynaydi.

Yakuniy muhokamalardan so’ng ikki tomonlama hamkorlikka qaratilgan memorandum imzolandi.

Ma’lumot uchun: ISRP Paris (Institut Supérieur de Rééducation Psychomotrice) — bu 1967-yilda Fransiyada tashkil etilgan reabilitatsiya davolash, diagnostika va ta’lim markazi.

Markaz psixomotoriya sohasida mutaxassislar — ya’ni harakat va ruhiy rivojlanish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va davolash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarni tayyorlaydi. Institutning asosiy kampusi Parij yaqinidagi Boulogne-Billancourt shahrida joylashgan. ISRP Fransiyada psixomotoriya bo‘yicha eng nufuzli va yirik maktablardan biri hisoblanadi.

SAMDTU NEYROXIRURGLARI ISTANBULDA MALAKA OSHIRDIAR

2–8-noyabr kunlari Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi Neyroxirurgiya va neyroreabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi xodimlari Istanbuldagi yetakchi Memorial Hospitals Group markazlarida bir haftalik stajirovkadan o‘tdilar.

Dastur doirasida klinik davra suhbatlari, miya va umurtqa pog‘onasida bajariladigan murakkab jarrohlik amaliyotlarini kuzatish, multidisiplinar konsiliumlarda ishtirok etish va bemor xavfsizligi bo‘yicha tajriba almashinuvini o‘z ichiga oldi.

"YANGI AVLOD HAMSHIRALARINI TAYYORLASHDA UZLUKSIZ TA'LIM" MAVZUSIDAGI ANJUMAN O'TKAZILDI

Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida "Yangi avlod hamshiralarini tayyorlashda uzluksiz ta'lim" mavzusidagi anjuman o'tkazildi.

Anjuman ochilishida so'zga chiqqan universitet rektori Jasur Rizayev hamda Kattaqo'rg'on shahar hokimi Gavhar Alimovalar tashkil etilgan tadbirning tibbiy ta'lim sifati hamda o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishdagi ahamiyatini alohida ta'kidladilar. Shuningdek, anjumanda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Samarqand viloyati hududiy bo'limi boshlig'i A.Navsimov va Hamshiralarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori H.Egamovlar ham ishtirok etib, konferensiyaning ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida so'z yuritdilar. Anjuman davomida bugungi kunda hamshiralar tayyorlash tizimida joriy etilgan yangiliklar hamda yaratilayotgan imkoniyatlar, jumladan xorijda malaka oshirish va ish faoliyatini yuritish borasidagi imkoniyatlar xususida tushuntirish va ma'lumotlar berildi.

Anjumanda hamshiralarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishdagi zamonaviy yondashuvlar muhokama qilindi. Ishtirokchilar tomonidan "Hamshiralar tayyorlashning bugungi holati: muammolar va takliflar", "Tibbiy ta'limda simulyatsion o'qitishning o'rni", " Zamonaviy innovatsion elektron o'quv jarayonida tibbiyot o'qitish tizimida ommaviy tadqiq etish" kabi dolzarb masalalar yuzasidan ma'ruzalar qilindi. Shuningdek, anjumanda hamshiralar tayyorlashda jahon tajribasini joriy etish masalasi ham ilgari surilib, tizimda qo'lga kiritilgan yutuqlar hamda va yechimini kutayotgan muammolar yuzasidan fikr almashildi.

UNIVERSITET TALABALARI BILAN TOSHKENT SHAHRIGA SAYOHAT UYUSHTIRILDI

Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish maqsadida universitetimizning bir guruh faol talabalari bilan rektor Jasur Rizayev boshchiligida Toshkent shahridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi va Shahidlar xotirasi maydoniga tashrif amalga oshirildi.

Tashrif davomida universitet rahbari boshchiligida xalqimiz manfaati yo'lida kurashgan va jon fido qilgan ajdodlarimiz xotirasi va ularning mardonavor hayoti haqidagi qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar bilan tanishildi. Shuningdek, talabalarning darslardan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida Toshkent shahrining bir qancha diqqatga sazovor maskanlariga ham sayohat tashkil etildi.

«MILLIY LIBOSLARIMIZ, MILLIY QADRIYATLARIMIZ BEZAGI»

Davolash ishi fakultetida yosh avlod qalbida milliy g'urur, o'zlikni anglash, ajdodlarimizni asrab avaylash va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida «Milliy Liboslarimiz, Milliy Qadriyatlarimiz Bezagi» mavzusida tadbir o'tkazildi.

Xotin-qizlar maslahat kengashi faollari va Nuroniy jamg'armasi Buvijonlar maktabi rahbari G.Husainovalar tomonidan bebaho milliy qadriyatlar, an'analarimiz hamda o'zbek xalqining azaliy timsoli bo'lgan milliy liboslarimiz, atlas, adras, beqasam, baxmal kabi matolarimiz, rang barang do'ppilarimiz - bu ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan bebaho madaniy boylik, xalqimizning nafis didi, go'zallikni his etish mahoratining ifodasi va milliy qadriyatlarimiz bezagi ekanligi to'g'risida fikr-mulohazalar yuritildi.

PORLAYVERGIN BAYROG’IM

Ko’ksimda mavjlanar orzu sururi
Yelkamga ortilgan millat g’ururi
Samoda hilpirar qalblarning nuri
Yuksakda porlayver, yurtim bayrog’i
Yurtim, osmoning musaffo bo’lsin
Oy va yulduz mudom yarqirab tursin
Baxtli kelajakda parvozlar qilsin
Yuksakda porlayver, yurtim bayrog’i.
O’zi bek bo’lgan o’zimning elim
Dunyo bilan yuzlashgan o’zimning elim
Seni sharaflashdan charchamas tilim
Yuksakda porlayver, yurtim bayrog’i.

Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakulteti 1-kurs talabasi Dilso‘z Abdullayeva

«TALABALAR TEATR STUDIYALARI» TANLOVINING UNIVERSITET BOSQICHI BO‘LIB O‘TDI

13-noyabr kuni universitetda «Talabalar teatr studiyalari» tanlovining universitet bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovda fakultet jamoalari o‘zlari tomonidan tayyorlangan sahna ko‘rinishlari bilan ishtirok etdilar. Yakunda g‘olib va sovrindorlar aniqlanib, diplom hamda sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

Yakuniy natijalarga ko‘ra sovrinli o‘rinlar quyidagi jamoalarga topshirildi:

1-o‘rin - Pedogogika va psixologiya fakulteti jamoasining «Kichik xonimlar» spektakl;

2-o‘rin - Stomotologiya fakulteti jamoasining «Jadidlar» spektakli;

3-o‘rin - Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakultetining «Usmon Nosir» va Davolash ishi fakultetining «Sen yetim emassan» spektakli.

SAMDTU YOSH OLIMI «YOSH OLIMLAR» RESPUBLIKA TANLOVIDA FAXRLI O‘RIN EGALLADI

12 noyabr 2025 kuni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi, Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya, mikrobiologiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Virusologiya ilmiy-tadqiqot instituti hamda Toshkent Tibbiyot akademiyasi hamkorligida “Yuqumli kasalliklarning dolzarb muammolari: tashxisi, davosi va profilaktikasi vazifalari” mavzusida “Yosh olimlar” tanlovi o‘tkazildi.

Mazkur nufuzli ilmiy tanlovda Samarqand davlat tibbiyot universiteti Yuqumli kasalliklar kafedrasi assistenti, PhD Rustamova Sh.A. o‘z ilmiy ma’ruzasi bilan faol ishtirok etib, faxrli III-o‘rinni egalladi va netbuk bilan taqdirlandi.

Tanlov yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, yuqumli kasalliklar yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish hamda ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

UNIVERSITET TARIXI

MUZEYIDAGI TILAKLAR KITOBIDAN



Mənim üçün böyük fəxrdir Azərbaycan Tibb Universiteti nümayəndəsi olaraq, Samərqənd Dövlət Tibb Universitetini ziyarət etmək. Son illər ərzində böyük təraqqiyə nail olan Samərqənd Dövlət Tibb Universitetinin uğurlarına ürəkdən sevinirik və daha böyük uğurlar arzu edirəm. Son illər ərzində inkişaf edən Universitetlərimiz arasında olan münasibətləri gələcəkdə daha gedişli və uğurlu olmasını arzu edirəm.

Biz daha böyük uğurlar və elmi nailiyyətlər arzu edirəm.

Sağlıqlar hörmətlə,

professor Faraj Bərayəğlı
Azərbaycan Tibb Universitetinin
Rektoru

03/XI, 2025



I enjoyed very much visiting Samarkand Medical State University this day, Saturday the 1st of November 2025, as part of my visit to Uzbekistan to attend the UNESCO General Assembly. I liked the introduction presented by the university official about the university and its history, which took me back to the days when I was a medical student at the University of Damascus, Syria. I wish this university all the success and a prosperous future.

Dr. Azmi Mahafza. Minister of Education and Higher Education/ Jordan

استمتعت هذا اليوم السبت الموافق الأول من تشرين الثاني 2025 م بزيارة جامعة سمرقند الطبية كجزء من زيارتي لأوزبكستان لحضور الجمعية العامة لليونسكو. لقد أعجبني التقديم الذي قدمه مسؤول الجامعة في حول الجامعة وتاريخها والذي أعادني إلى ذكرياتي في كلية الطب في جامعة دمشق / سوريا. أتمنى لهذه الجامعة كل النجاح ومستقبل مزدهر.

د. عزمي محافظة
وزير التربية والتعليم ووزير التعليم العالي والبحث العلمي
المملكة الأردنية الهاشمية

Xotira

YAZDANOV AMON YAZDANOVICH



2025-yil 8-noyabr kuni beshafqat o‘lim Samarqand davlat tibbiyot universiteti Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi dotsenti, pediatr, tibbiyot fanlari nomzodi Yazdanov Amon Yazdanovichni oramizdan olib ketdi.

Amon Yazdanov 1948-yil 9-may kuni Samarqand viloyati Urgut tumanida tavallud topgan. U o‘z ishining mohir ustasi, mas’uliyatli va jonkuyar xodim, tajribali va malakali pedagog, ajoyib shifokor, 4 nafar farzandning otasi, ko‘plab nabiralarning sevimli bobosi edi.

A.Yazdanov 1972-yilda Samarqand davlat tibbiyot instituti Peditariya fakultetini tamomlagan. 1972-1973 yillarda Internaturani muffaqiyatli tugatib, Pediatr mutaxassisligiga ega bo‘ldi. 1997 yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

50 yil mehnat faoliyati mobaynida A.Yazdanov tibbiyot va ta’lim tizimida turli tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritdi. Dastlab 1973-1975 yillarda 2058-harbiy qismda harbiy shifokor, 1975-2001 yillarda Samarqand davlat tibbiyot instituti Pediatriya kafedrasida assistent, 2001-2015 yillarda 1-gospital pediatriya kafedrasida dotsent kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan. 2015 yildan bugungi kunga qadar Samarqand davlat tibbiyot universitetining Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasida dotsent lavozimida mas’uliyat bilan mehnat qilayotgan edi.

A.Y.Yazdanov universitetning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etardi, mas’ul mutaxassis edi. Uzoq vaqt davomida Samarqand davlat tibbiyot universitetida talabalar Kasaba uyushmasi raisi, Pediatriya fakultetida dekan o‘rinbosari, O‘quv-uslubiy boshqarmasi yetakchi xodimi, Ko‘p tarmoqli bolalar viloyat markazi Bolalar gastroenterologiyasi bo‘limi rahbari kabi vazifalarda ishlagan edi. Universitet jamoasida, hamkasblari, shogirdlari va bemorlari orasida hurmatga sazovor edi. To‘g‘riso‘zligi, mehribonligi, g‘amxo‘rligi, madaniyatli va kamtarligi bilan ajralib turardi.

Amon Yazdanovning fidoyiligi, jonkuyarlik va insoniylik fazilatlari qalbimizda mangu yashaydi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektorati va Kasaba uyushmasi qo‘mitasi

SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi, katta o‘qituvchi lavozimiga – 1 ta o‘rin;
2-son xirurgik kasalliklar kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;
1-son xirurgik kasalliklar va transplantologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Urologiya kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin.

PEDIATRIYA ISHI FAKULTETI

2-son bolalar xirurgiyasi kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga – 1 ta o‘rin;
2-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga – 1 ta o‘rin;
2-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Oftalmologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Neyroxirurgiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
2-son pediatriya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin.

DIPLOMDAN KEYINGI TA’LIM FAKULTETI

Xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya-reanimatologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Stomatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya-reanimatologiya kafedrasi, assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Stomatologiya kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin;
Travmatologiya-ortopediya, neyroxirurgiya va oftalmologiya kafedrasi, stajyor-assistent lavozimiga – 1 ta o‘rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxslar qatnashishi mumkin. Katta o‘qituvchi, assistent yoki stajyor assistent lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin. Hujjatlar e’lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay’ati:
G‘.U.Lutfullayev, S.A.Karabayev, A.A.Axmedov, J.F.Kadirov, B.E.To‘xtarov, F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov, U.S.Pulatov N.M. Shavazi.

SHIFOKOR SO`ZI

Nashr uchun mas’ul:
O. Muratov

Operator va sahifalovchi:
A. Xolboyev
Fotomuxbir:
O.Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to`liq rangli shaklda chop etiladi va ***bepul tarqatiladi***

MANZIL: *Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.*
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2025 yil, 26-noyabr. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 217